



## LINGUOCULTURAL FEATURES OF THE ZOOMORPHIC CODE IN THE TOPONYMY OF KASHKADARYA REGION

**Beginov Odil Tukhtamishovich**

Doctor of Philological Sciences, Professor of the Department of Uzbek Language and Literature at Karshi State Technical University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594440>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> June 2026

Accepted: 07<sup>th</sup> June 2026

Online: 08<sup>th</sup> June 2026

### KEYWORDS

Toponymy, zoomorphic code, cultural code, totemism, ethnonym, oikonym, hydronym, linguoculturology, ethnolinguistics, territorial worldview, mythological perception.

### ABSTRACT

*This article analyzes the concept of the zoomorphic code from linguocultural and ethnolinguistic perspectives based on the toponymic materials of the Kashkadarya region. The study examines the semantic, etymological, and cultural foundations of toponyms associated with the names of animals and birds. The zoomorphic components embedded in these toponyms are investigated in connection with the totemistic beliefs, mythological perceptions, and spatial worldview of ancient Turkic peoples. Furthermore, the role of the zoomorphic code in the formation of ethnonyms and toponyms is explored, and its developmental process is analyzed through the model **zoonym** → **totem** → **ethnonym** → **toponym**. The findings demonstrate that the zoomorphic code in the toponymy of the Kashkadarya region represents an important linguocultural phenomenon reflecting the historical memory, ethnocultural values, and spatial perceptions of the local people.*

## QASHQADARYO VILOYATI TOPONIMIYASIDA ZOOMORFIK KODNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

**Beginov Odil To'xtamishovich**

Qarshi davlat texnika universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori,  
filologiya fanlari doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20594440>

### ARTICLE INFO

Received: 02<sup>nd</sup> June 2026

Accepted: 07<sup>th</sup> June 2026

Online: 08<sup>th</sup> June 2026

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati toponimiyasi materiallari asosida zoomorfik kod tushunchasi lingvokulturologik va etnolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hayvon va qush nomlari bilan bog'liq toponimlarning semantik, etimologik hamda madaniy asoslari yoritiladi. Toponimlar tarkibidagi zoomorfik komponentlar qadimgi turkiy xalqlarning totemistik qarashlari, mifologik tasavvurlari va hududiy tafakkuri bilan bog'liq holda o'rganiladi. Shuningdek,*



**KEYWORDS**

*Toponimiya, zoomorfik kod, madaniy kod, totemizm, etnonim, oykonim, gidronim, lingvokulturologiya, etnolingvistika, hududiy tafakkur, mifologik tasavvur.*

*zoomorfik kodning etnonimlar va toponimlar shakllanishidagi o'rne hamda zoonim → totem → etnonim → toponim modeli asosida rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyati toponimiyasida zoomorfik kod xalqning tarixiy xotirasi, etnomadaniy qadriyatlar va makon haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim lingvokulturologik hodisa ekanligini ko'rsatadi.*

**KIRISH**

Zamonaviy tilshunoslikda til, tafakkur va madaniyat munosabatlarini o'rganish antropotsentrik paradigma doirasidagi muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, til nafaqat kommunikativ vosita, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va madaniy qadriyatlarini saqlovchi hamda uzatuvchi tizim sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan toponimlar xalqning etnik tarixi, mifologik qarashlari va madaniy xotirasini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati toponimiyasi tarkibida zoomorfik komponentlar alohida o'rin egallaydi. Hayvon va qush nomlari asosida shakllangan geografik nomlar qadimgi turkiy xalqlarning totemistik e'tiqodlari, tabiat bilan bog'liq tasavvurlari hamda makonni idrok etish xususiyatlarini aks ettiradi. Zoomorfik kod orqali makonning semantik modellashtirilishi xalqning etnomadaniy tafakkuri bilan chambarchas bog'liqdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Qashqadaryo viloyati toponimiyasida uchraydigan zoomorfik kodlarni aniqlash, ularning lingvokulturologik mohiyatini ochib berish hamda totemizm bilan bog'liq nominatsion jarayonlarni tahlil qilishdan iborat.

**TADQIQOT METODLARI VA METODOLOGIYASI**

Tadqiqot antropologik tilshunoslik, lingvokulturologiya va etnolingvistika nazariyalariga asoslanadi. Ishda madaniy kodlar konsepsiyasi, totemizm nazariyasi hamda onomastik tadqiqotlarning ilmiy yondashuvlari metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tavsifiy metod yordamida Qashqadaryo viloyati toponimlari tizimidagi zoomorfik birliklar tavsiflandi;
- etimologik tahlil metodi orqali toponimlarning kelib chiqishi va tarixiy shakllanishi aniqlandi;
- lingvokulturologik tahlil asosida toponimlarning madaniy va mifologik mazmuni ochib berildi;
- qiyosiy-tarixiy metod yordamida zoomorfik komponentlarning turkiy tillardagi muqobil shakllari bilan bog'liqligi o'rganildi;
- komponent tahlili metodi orqali toponimlar tarkibidagi zoonim, etnonim va toponim munosabatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot manbai sifatida Qashqadaryo viloyatidagi aholi punktlari, suv obyektlari va relyef nomlari hamda ular bilan bog'liq tarixiy-etnografik materiallardan foydalanildi.



### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Makon haqidagi bilimlar, tasavvurlar va madaniy tajriba turli **madaniy kodlar** orqali ifodalanadi. Madaniy kod deganda madaniyatning atrof-muhitni anglash, uni tasniflash, tartibga solish va baholashga xizmat qiluvchi ramziy tizimi tushuniladi. Boshqacha aytganda, madaniyat tili insonning dunyoni idrok etishida muhim rol o'ynaydigan g'oyalar, mifologik tasavvurlar, madaniy motivlar va xulq-atvor shakllarining murakkab tizimini tashkil etadi [8; 297].

Tadqiqotchilar madaniy kodlarning ayrim jihatlari universal xarakterga ega ekanini ta'kidlash bilan birga, ularning konkret namoyon bo'lishi har bir millatning tarixiy va madaniy tajribasi bilan bog'liq ekanligini ham qayd etadilar. Shu sababli madaniy kodlarning mazmuni, ularning nisbiy ahamiyati hamda ular orqali yaratiladigan metaforalar muayyan xalqning madaniy an'analari bilan belgilanadi.

Til, tafakkur va milliy madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirishda **madaniy kod** tushunchasi muhim nazariy vosita hisoblanadi. Inson – vaqt – makon kategoriyalari madaniy tajribada asosiy semantik universallar sifatida namoyon bo'ladi. Qashqadaryo viloyati toponimiyasida ushbu universallar turli madaniy kodlar orqali ifodalanadi. Jumladan, antropomorfik, somatik va zoomorfik kodlar topografik obyektlarni modellashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Geografik obyektlarning nomlanishida inson va tabiat o'rtasidagi o'ziga xos semantik aloqani kuzatish mumkin. Bu aloqa ayniqsa antropomorfik modellashtirishda

yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda geografik obyekt yoki uning qismlari inson tanasi a'zolari bilan bog'liq nomlar orqali ifodalanadi. Lingvistik nuqtayi nazardan bunday toponimlar anatomik terminlarning boshqa semantik sohaga – geografik obyekt nomlariga ko'chirilishi natijasida yuzaga keladi. Natijada motivatsion birliklarning bir tizimi boshqa voqelik sohasi bilan bog'lanib, yangi nominativ vazifani bajaradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi, afsona va rivoyatlari hamda toponimik materiallarni tahlil qilish orqali totem hayvonlarining turkiy xalqlar hayotida qanday rol o'ynaganini aniqlash mumkin. Bu jarayon totemizm fenomenining mohiyatini tushunishga yordam beradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida totem hayvonlarining yashash uchun qulay hududni tanlashi bilan bog'liq motivlar keng tarqalgan. Mahalliy xalq tasavvurida ularni o'rab turgan makon bir xil emas, balki turli darajadagi ahamiyatga ega hududlardan tashkil topgan. Ayniqsa bo'ri, yo'lbars, qaplon, ayiq, tulki, jayron kabi yavvoyi hayvonlar; ho'kiz, qo'y, tuya, yilqi, ot kabi uy hayvonlari; burgut, lochin, qarg'a, turg'ay kabi qushlar totemlar sifatida muqaddas joylarni tanlashda muhim belgi sifatida qaralgan. Bu holat qadimgi turkiy qavmlar jamiyatida muqaddas makonni aniqlash bilan bog'liq jamoaviy diniy tajriba mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Totem bilan bog'liq geografik nomlarning mohiyatini to'liq tushunish uchun totemizm fenomenini tadqiq qilgan ilmiy manbalarga murojaat qilish zarur. Tadqiqotchilar totemizm hodisasini tushuntirishda uning ijtimoiy, madaniy va hududiy mazmuniga alohida



e'tibor qaratadilar. Masalan, V.N. **Toporovning** fikricha, totem muayyan inson jamoasini aniq hudud bilan bog'lab turuvchi muhim ramziy omil hisoblanadi. U jamiyatni tarixiy o'tmish bilan bog'laydi, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni o'zaro uyg'unlashtiradi hamda jamoa a'zolarini umumiy xulq-atvor me'yorlari asosida birlashtirishga xizmat qiladi [14; 442].

Fransuz antropologi **Claude Lévi-Strauss** ibtidoiy tafakkur xususiyatlarini tahlil qilar ekan, totemizmni muayyan tasniflovchi tizim yoki madaniy kod sifatida talqin qiladi. Uning fikriga ko'ra, totemizm orqali yaratilgan maxsus kategoriyalar hamda ular bilan bog'liq mifologik tasavvurlar makonni tartibga solish va uni ma'lum semantik tizim asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan olim mifologik geografiya va totemik topografiya hodisalarini ko'rib chiqib, ularning tegishli toponimlar bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi [10; 239].

Ibtidoiy jamiyat tafakkurining shakllanishini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda V. S. **Xon** ham muhim xulosalar bildiradi. Uning ta'kidlashicha, ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan dastlabki jamoalar tafakkuri, avvalo, ma'lum hududga, uning hayvonot va o'simlik dunyosiga qaratilgan edi. Inson hayoti bevosita bog'liq bo'lgan tabiiy muhit ibtidoiy jamoalarning amaliy faoliyatida markaziy o'rin egallagan. Dehqonchilik yoki chorvachilik kabi ishlab chiqarish shakllari shakllanishidan oldin inson tabiat hodisalarini, hayvonlar va o'simliklarning ko'payishini ma'lum hududga xos takrorlanuvchi tabiiy jarayonlar bilan bevosita bog'lab

tushungan [15; 83]. Olimning fikricha, ibtidoiy jamoalarga xos bo'lgan "**hududiy tafakkur**" nafaqat tabiatdagi jarayonlarni, balki ijtimoiy hodisalarini ham anglashga xizmat qilgan. Ya'ni insonlar hayot manbalari, tabiat boyliklari hamda jamiyatdagi voqealarni ma'lum makon bilan bog'lab talqin qilganlar [15].

Shuningdek, V. S. **Xon** S. A. **Tokarevning** qarashlariga tayanib, totemizm mohiyatini yanada aniqlashtiradi. U Tokarevning "totemik hayvon tasviri totemistik tasavvurlarning yagona yoki asosiy obykti emas"ligiga asoslanib, "bunday tasavvurlar, avvalo, muayyan hudud bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa ma'lum bir urug' yoki qabilaning ko'chmanchilik hududi hamda uning "muqaddas markazi"ni qamrab olishi"ni ta'kidlaydi [15, 83].

Dinshunos va tarixchi **Mircha Eliade** ham makonning diniy tasavvurlardagi o'rniga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, dindor inson tasavvurida makon bir xil va yaxlit emas, balki turli darajadagi muhimlikka ega bo'lgan qismlardan tashkil topgan. Boshqacha aytganda, makon heterogen xususiyatga ega: unda muqaddas va oddiy hududlar o'zaro farqlanadi. Muqaddas makonlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular mazmun va tuzilishga ega "kuchli" hududlar sifatida qaraladi. Ulardan farqli ravishda muqaddas bo'lmagan hududlar tartibsiz, amorf va mazmunsiz makon sifatida tasavvur qilinadi. Shu sababli dindor inson muqaddas makonni boshqa hududlardan ajratib turuvchi markaz sifatida qabul qiladi [16, 22].



Yuqorida keltirilgan xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan motivlar hamda totemizm mohiyatiga oid nazariy qarashlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, "**hududiy tafakkur**" qadimgi turkiy xalqlar dunyoqarashiga ham xos bo'lgan. Bu esa ular uchun atrof-muhit bir xil va yaxlit makon sifatida emas, balki turli darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan hududlar majmui sifatida idrok etilganini ko'rsatadi.

Bunday afsonaviy motivlarning shakllanishi Qashqadaryo viloyati mahalliy aholisining kundalik hayotiy tajribasi bilan bog'liq bo'lgan jamoaviy, dastlab ratsional xarakterga ega e'tiqodlar asosida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Keyinchalik esa bu qarashlar mifologik va diniy talqin kasb etib, irratsional e'tiqod shakliga aylangan. Qashqadaryo viloyati aholisining amaliy tajribasiga nazar tashlasak, ularda hayvonlarning xatti-harakatlaridan foydalanganliklarini ko'rish mumkin. Vaqt o'tishi bilan ushbu tajriba diniy-mifologik mazmun bilan boyib, muqaddas hayvon muqaddas makonni aniqlashda ramziy belgi sifatida talqin qilina boshlagan.

Qadimgi etnonimlar asosan qush, hayvon nomlaridan kelib chiqqan bo'lib, totemni bildirgan. Jumladan, qadimgi turkiy yodnomalarda bunday totemlarni ko'plab uchratish mumkin. O'z navbatida bunday etnonimlar turli topografik obyektlar nomlarining kelib chiqishiga asos bo'lgan. Toponimlar, xalq rivoyatlari va an'anaviy tasavvurlar singari, mahalliy aholi mifopoetik dunyoqarashida turli hayvonlar va jonivorlar obrazi bilan bog'liq kuch, jasorat, adolat, sabr-toqat g'oyasini aks

ettiradi. Shu sababli Qashqadaryo viloyati toponimiyasida aholi maskanlari, suv hovzalari nomlari ko'pincha totemik hayvonlar, qushlar yoki boshqa muqaddas timsollar bilan bog'liq bo'lgan. Bu esa muhim ilmiy savolni yuzaga keltiradi: bunday hollarda qaysi birlik birlamchi hisoblanadi — **etnonimmi, gidronimmi yoki oykonimmi?**

Qashqadaryo viloyatining "hududiy tafakkuri"ni hisobga olgan holda, cheksiz makon sharoitida yo'l ko'rsatuvchi ramz sifatida xizmat qilgan totemni birlamchi omil sifatida talqin qilish mumkin. Bunday holda totem yordamida topilgan yoki aniqlangan topografik obyekt nomi ikkilamchi bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Keyinchalik biron bir etnik nomga mansub aholi yashagan joydagi orografik, gidrografik va oykografik obyektlar shu nom asosida nomlangan bo'lishi mumkin.

Demak, bu yerda zoonim → totem → etnonim → toponim modeli mavjudligi kuzatiladi. Ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

**1. Qush nomlari asosida shakllangan zoomorfik kod.** Irg'ovul (Shahrisabz) qishlog'i. Bu nom tarixan irg'a, irg'avul— o'rdaksimonlar oilasiga mansub qushga borib taqaladi. Qashqa-Surxon qo'ng'irotlarining kichik urug'i — irg'aqli. Irg'aqli ~ irg'avul — tarixan bir o'zakdan. Irg'a (vul) qushi, dastlab totem bo'lgan. -q qadimiy urug'-qabila nomlariga xos ko'plik qo'shimchasi: qipchoq, qimak (kimak), so'zoq, qumiq [1;116]. -li va -vul affikslari ko'plik va xoslik, mavjudlik ma'nolarini bildirgan. Irg'a qushiga topinuvchi kishilar guruhi — irg'aq ~ irg'aqli ~ irg'avul. Etnonim oykonimga aylangan [15; 85].



To'lg'a (Koson) qishloq nomi asosida qush nomi yotibdi. Mangitlarning osmangit bulimiga xos urug'lardan biri — tulta. M. Koshg'ariy lug'atida turg'ay qushining qadimiy shakli sifatida to'rig'a so'zi keltirilgan (7; III,189). Nafasovning keltirishicha, bu so'z to'rig'a>to'rg'a>to'lg'a – to'rg'ay shaklida o'zgarib borgan. Bu nom keyinchalik totem sifatida urug' nomiga, ya'ni etnonimga, etnonim oykonimga o'tgan[11; 183].

Qashqadaryo viloyati toponimiyasida mavjud zoomorfik asosga ega nomlardan yana biri Chavalay (Shaxrisabz, qishloq). Bu nomning asosi suv havzalarida yashaydigan ko'l qushining bir turi hisoblangan chag'alayga borib taqaladi. Turg'ay qushining ham mahalliy turlaridan biri chag'alay deb ataladi. Demak, chag'alay qushi nomi totem sifatida etnonimga aylangan. Chag'alay > chavalay — urug'ning kichik bo'limi, kenagas va quchchilarning kichik bir tarmog'i nomi. Keyinchalik, etnonim qishloq nomining shakllanishiga asos bo'lgan.

G'uzor tumanida joylashgan Chavgan (qishloq), G'uzor shahridagi Chavgan (guzar) nomlarida ham zoomorfik kod belgilari uchraydi. Qadimgi turkiy tilda chov - lochin [4; 243], u totem bo'lgan, unga -ka, -n affiksleri qo'shilgan, -ka affiksi xoslik, mavjudlik ma'nosidagi sifat yasagan, -n affiksi jamlik, ko'plikni bildirgan. chov + ka> chovka + n > chavgan — chovkalar, lochinga topinganlar, lochinni o'z totemlari deb bilganlar. Qo'ng'irotlar qanjig'ali bo'limi cho'llik urug'ining bir tarmog'i chavgan deb ataladi [11; 198].

**2. Yavvoyi hayvon nomlari asosidagi zoomorfik kod.**

Ma'lumki, toponimlar tarkibida bo'ri so'zi ko'p uchraydi. Bu so'z Bo'ribatosh (Qarshi, qishloq), Bo'ridahna (Dehqonobod, dara), Bo'rijar (Shahrisabz, jar), Bo'rioshar (Shahrisabz, jar), Boybo'ri (Qamashi, qishloq) kabi toponimlar tarkibida birinchi yoki ikkinchi komponent bo'lib kelgan. Albatta bu komponentning toponimlar tarkibida turlicha semantik xususiyatlarni namoyon qilganligi kuzatiladi. Professor T. Nafasov Bo'ribatosh, Bo'ridahna, Boybo'ri toponimlari tarkibidagi bo'ri so'zini antraponimlar bilan bog'laydi [11; 49]. Bo'ri — qadimgi turkiylarda totem. Qadimgi turkiylarning ashin urug'i o'zlarini bo'ridan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Qo'ng'irotlarda boybo'ri, qoraqalpolarda baybo'ra degan urug' bor [5;162]. Xalq nutqida bo'ri (chuqur til orqa o' tovushi bilan - borы) — semiz, bahaybat, katta, ulkan, yirik. Qirg'iz tilida boro — juda katta, ulkan, bahaybat [17; 147].

Toponimlar tarkibida uchraydigan yana bir zoomorfik elementlardan biri sariq so'zi hisoblanadi. Jumladan, Muborak tumanida Sariq qishlog'; Mirishkor, Koson tumanlarida Sariq guzari mavjud. Sariq — umumturkiy etnonim, turkman, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, o'zbeklar tarkibida qabila, urug', urug' tarmog'i. Quyi Qashqadaryo turkmanlarining sariq ~ sarig' ~ sari urug'i bor. Qishloq nomlari etnonimdan hosil bo'lgan. O'z navbatida etnonim totem asosida yuzaga kelgan. Tatar tilida sarыk — qo'y, sarыchылык — quychilik [17; 470]. V. V. Radlov lug'atida sariq qo'y ma'nosini berishi ko'rsatilgan [12; IV,322].



Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har bir hudud etnotoponimiyasini alohida ilmiy muammo sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu soha o'zbek tilining onomastik tizimida mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida o'rganilishi lozim. Etnonimlar va toponimlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash murakkab masala bo'lib, u nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik omillarni ham hisobga olishni talab etadi. Jumladan, aholi punktining paydo bo'lish davri, hududda yashagan qabila tarkibi, shu nom bilan ataluvchi daryo yoki boshqa geografik obyektlarning mavjudligi kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

#### XULOSA

Qashqadaryo viloyati toponimiyasining tahlili zoomorfik kodning mintaqa geografik nomlar tizimida muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Zoomorfik komponentlar qadimgi turkiy

xalqlarning totemistik qarashlari, hududiy tafakkuri va etnomadaniy tajribasining lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot davomida toponimlarning shakllanishida zoonim, totem va etnonimlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Qush va hayvon nomlari bilan bog'liq toponimlar xalqning makon haqidagi tasavvurlari hamda muqaddas hududlarni belgilashga oid qadimiy qarashlarini aks ettiradi.

Shunday qilib, zoomorfik kod Qashqadaryo toponimik makonining muhim lingvokulturologik qatlamini tashkil etadi va ularni o'rganish o'zbek xalqining tarixiy-madaniy merosi, etnik shakllanishi hamda dunyoqarashini chuqurroq anglash imkonini beradi. Kelgusida zoomorfik kodlarning boshqa hududlar toponimiyasi bilan qiyosiy tahlili ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada boyitishi mumkin.

#### References:

1. Джанузаков Т. Очерк казахской ономастики. Алма-Ата, 1982. -175 с.
2. Долгих Б. О. Родовой и племенной состав народов Сибири в XVII в. М., 1960. - 623 с.
3. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари Т., 1968. -96 б.
4. Древнетюркский словарь. Л., 1969. -676 с.
5. Жданко Т. А. Очерки исторической этнографии каракалпаков. Л., 1950. -172 с.
6. Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана М., 1976. -323 с.
7. Кошғарий М. Девону луготит турк. Тошкент, I jild (1960) — 529 bet; II jild (1961) — 488 bet; III jild (1963) — 468 bet.
8. Красных В. В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность? М.: Гнозис, 2003. 375 с.
9. Кузеев Р. Г. Происхождение башкирского народа. М., 1974. -569 с.
10. Леви-Строс К. Первобытное мышление. М.: Республика, 1994. 384 с.
11. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1988. -287 б.
12. Радлов В. В. Опыт словаря тюркских наречий. I — IV, СПб. 1893- 1911. -2000 с.
13. Татарско-русский словарь. М., 1966. -863 с.



14. Топоров В. Н. Животные // +Мифы народов мира. М.: Советская Энциклопедия, 1991. Т. I. С. 440–449
15. Хан В. С. Структура практики и способ мышления эпохи первобытной родовой общины // Вестник МГУ, сер. филос. 1993. №1. С. 83–91.
16. Элиаде М. Священное и мирское. М.: Изд-во Моск. ун-та, 1994 . 144 с.
17. Юдахин К. К. Киргизско-русский словарь. М., 1965. -973 с.